

Bolaligim – poshsholigim!

# ERKATOY


№4(8). 2014 y.  
aprel



O'YINLAR

ERTAKLAR

KIDS ENGLISH



**MUHAMMAD YUSUF**  
O'zbekiston xalq shoiri  
1954-2001

## Qalblarda yashaysiz, mangu barhayot

*Ey menga ertaklar so'ylagan zamin,  
Ergashib izingdan qolmasman.  
O'zgalar nazdida Bog'i Eramning  
Jiydang yaprog'iga olmasman sening.  
Vatan, qayda bo'lmay, sen hamrohimsan,  
Bobolarim yotar sajdagohimsan.*

Yurak tubidagi mehr birla bitilgan bu misralarning muallifi Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatib, Rus tili va adabiyoti (hozirgi Jahon tillari Universiteti)ning rus tili va adabiyoti fakultetini tamomlagan.

Shoirning ilk she'ri "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etildi. O'shanda Muhammad Yusuf 22 yoshda edi. Ijodga bo'lgan qiziqishi shoirni tahririyat hamda nashryotlarda faoliyat yuritishga undadi. 1978-80 yillarda Respublika kitobsevarlar jamiyatida, 1980-86 yillarda "Toshkent oqshomi" gazetasida, 1986-92 yillarda G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida, 1992-95 yillarda "O'zbekiston ovozi" gazetasida, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmalarida turli lavozimlarda ishladi.

Muhammad Yusuf insonning dardini his qilib, ajoyib she'rlar yaratadiki, ular bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmasdan, muxlislar olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, vatan, yurt haqida yozilgan she'rlari yurtimizning har bir fuqarosi qalbidan chuqur joy oldi. Bir qanchasi el suygan san'atkorlar tomonidan qo'shiq qilib kuylandi va kuylanmoqda.

Shoirning ijod yo'lida chekkan mashaqqatlari el nazaridan chetda qolmadi. U 1998 yilda "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni bilan taqdirlandi. Muhammad Yusuf hayoti davomida "Tanish teraklar", "Bulbulga bir gapim bor", "Uyqudagi qiz", "Halima onam allalari", "Osmonimga olib ketaman" kabi bir qancha she'riy to'plamlarini muxlislar e'tiboriga havola etdi.

Shoir Muhammad Yusuf garchand oramizda bo'lmasada muxlislar qalbida abadiy yashab qoladi. Chunki u o'z she'rlari bilan inson qalbiga mehr-muhabbatni joylay olgan shoirlardan biri sanaladi. Yozib qoldirgan o'lmas me'rosi – she'riyati orqali barchamizning qalbimizda mangu yashaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27-dekabrda qarori bilan Muhammad Yusufning 60 yilligi yurtimizda keng nishonlanmoqda.



Shavkatjonning sevgani  
Shirin choy, shirin choy  
Shunga hamma der uni  
Shirin toy, shirin toy.

Ichar novvot, qand solib  
Shirin choy, shirin choy  
Qo'l yuvmas o'zi bilib  
Shirin toy, shirin toy.

Qo'li tugul yuz-quloq  
Shirin choy, shirin choy  
Dangasa ham erinchoq  
Shirin toy, shirin toy.

Shunday qilsa bermaymiz  
Shirin choy, shirin choy  
Erkalab demaymiz:  
Shirin toy, shirin toy.

## SHIRINTOY

U.ABDUAZIMOVA she'ri,  
A.BERLIN musiqasi.

Andantino

*f*

8 *mf*

14

20

25

Shav-kat-jon-ning sev-ga-ni shi-rin choy shi-rin choy Shun-ga ham-ma  
der u - ni Shi-rin - toy, Shi-rin - toy I-clar nov-vot qand so-lib shi-rin choy  
shi-rin choy qo'l yuv-mas o' - zi bi - lib Shi-rin - toy, shi-rin - toy

## Gapiruvchi daraxt

Bir yo'lovchi kattakon daraxtning tagida dam olmoqchi bo'libdi. U yotibdi-yu, ko'zi uyquga ketibdi. Bir vaqt o'rnidan turib ketmoqchi bo'lganda hamyoni yo'qolganini payqab qolibdi.

Shu yaqin o'rtada bir qishloq bor ekan. Yo'lovchi nima qilarini bilmay, qattiq qayg'urib, yerga yotib dodlay boshlabdi. Uning dod-voyini eshitib odamlar to'planishibdi va:

-O'g'irlik bizning yerimizda sodir bo'ldi, ishqilib, hammamiz javobgar bo'lmasak yaxshiydi, - deya har kim o'zicha gapira boshlabdi.

Shu o'rtada kimdir borib bu voqeani qoziga yetkazibdi. Qozi hamyon yo'qotgan musofirni o'z huzuriga

chaqirtiribdi va:

-Nega baqirib-chaqirib hammaning tinchligini buzyapsan? - deya so'roq qilishga kirishibdi.

-Ey hukmi odil, men daraxt tagida uxlab yotganimda hamyonimni o'g'irlab ketishibdi. O'g'rini qayerdan qidiraman endi, shuning uchun dodlab faryod urishdan boshqa choram yo'q edi, - deb javob beribdi musofir.

Qozi voqea qanday sodir bo'lganini aniqlagach, daraxtning bitta shoxini kesib so'roqqa olib kelishni buyuribdi. Odamlar shoxga borib kelgunlaricha qozi hovli o'rtasida bir o'ra qazdirib, ichiga o'z soqchilaridan birini tushuribdi-da:

-Mening so'rog'imni eshitishing bilan: "Ey qozi janoblari, men odamlarni ko'zdan kechirib, o'g'rini tanib beraman", degan javobni ber, - deb uqtiribdi.

O'raning ustini yaxshilab berkitishibdi. Odamlar shoxni kesib kelishgach, qozi uni o'sha yerga qo'yibdi-da, hech narsa bilmaganday shoxni so'roq qila boshlabdi.

Qanday buyurilgan bo'lsa, soqchi ham xuddi o'shanday javob beribdi. Shu zahoti butun qishloqqa:

-Daraxt ham gapirishni bilar ekan, u o'g'rini topib berishni va'da qildi, - degan ovoza tarqalib ketibdi.

Hamyonni o'g'irlagan o'g'ri buni eshitgach, bezovta bo'lib qolibdi. "Ish rasvo bo'ldi, yaxshisi, o'zim iqror bo'lib qo'ya qolay", - degan qarorga kelibdi.

Shundan so'ng u pulni olib, to'ppa-to'g'ri qozining oldiga jo'nabdi.



## JAHON CHEMPIONI BO'LISH ORZVIM

Men birinchi marta 2011-yil "JAR" ochiq chempionati musobaqasida qatnashganman va bu jangda I-o'rinni egallaganman. 2012-yil O'zbekiston chempionatida qatnashib II-o'rinni, shu yilning noyabr oyida Sochida bo'lgan musobaqada II-o'rinni oldim. 2013- yil O'zbekiston chempionatida ham II-o'rin, 2013-yil Ispaniyaning Barselona shahrida WASCO bo'yicha jahon chempionatida 1 ta oltin va 2 ta kumush medalni qo'lga kiritdim. 2013-yil 4-avgustda Sirdaryo viloyatida yoshlar o'rtasida o'tkazilgan ochiq chempionatda I-o'rinni egalladim. 2013-yil 6-oktyabrda Amerikaning Nyu-York shahrida IX "Big apple" bo'yicha xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Bu musobaqada ham birinchilikni qo'lga kiritdim.

Sportga kirib kelishimga o'rtog'im sababchi bo'lgan. Uni sport mashg'ulotlariga qatnaganini ko'rib havas qilardim. Shundan so'ng dadam meni ham sportning TAEKWON-DO turi bilan shug'ullanishimga ruxsat bergan. Dadam futbolchi bo'lgani uchunmi, futbol o'ynashga juda qiziqaman. Sportdan tashqari bo'sh vaqtlarimda ingliz tilini o'rganaman.

Kelajakdagi orzu-yim – ota-onam va ustozlarimni bergan pand nasihatleri va bilimlarini chuqur egallagan holda jahon chempioni bo'lib, Vatanim bayrog'ini ko'klarga ko'tarish.

Hasanjon Inomjonov 2001-yil 12-dekabrda Shayxontohur tumanida tug'ilgan. 38-maktabning 6-sinfida o'qiydi. U to'rt yoshidan sportning TAEKWON-DO turi bilan shug'ullanib kelmoqda. Hozirda 2 ta oltin va 4 ta kumush medal sohibi.



Durdona suhbatlashdi.

**Mummy: Wake up, Durдона**

[Mami]: ['weik ʌp, Djurdonə]

**Durдона: What time is it now, mummy?**

[Djurdonə]: ['wə:t 'taim iz it nau mami]

**Mummy: It's a quarter to eight.**

[Mami]: [itz ə 'kwɔ:tə tu: 'eit]

**You have a lot of things to do. Hurry up!**

[ju: hæv ə lot əv ɔ:ŋs tu: du: 'həri ʌp]

**Durдона: Oh, Mummy I'm so sleepy!**

[Djurdonə]: [ou, mami, aim sou 'sli:pi]

**Mummy: Come on, sleepy-head don't waste any more time.**

[Mami]: [kʌm on, 'sli:pi-hed daunt 'weɪst 'eni mɔ: 'taim]

**You've got to get washed, eat your breakfast and be off to school.**

[juv got tu: get 'wɒʃt, 'i:t jɔ: 'brekfəst ænd bi: ɔ:f tu: 'sku:l]

**Durдона: Oh, I shan't be late, mummy.**

[Djurdonə]: [ou, ai ʃɑ:nt bi: 'leit mami]

**It'll take me only twenty minutes to get ready.**

[Itl teik mi: 'ounli 'twenti 'minuts tu: get 'redi]

### Dictionary

A lot of - ko'p

**Hurry up! - shoshil!**

Come on! - bo'laqol!


**Sleepy-head - uyquchi**

Waste - bekor ketgazish

**More - ko'proq**

Breakfast - nonushta

**Get ready! - tayyor bo'!**



1. Insects.

2. Ant.

3. Bee.

4. Butterfly.

5. Grasshopper

6. Lady bird.

7. Dragonfly.

8. Beetle.

9. Caterpillar.

10. Fly.

11. Mosquito.





Playing football  
[pleiŋ 'futbɔ:l]  
futbol o'ynamoq



Playing volley-ball  
[pleiŋ 'vɔlibɔ:l]  
voleybol o'ynamoq



Riding a horse  
['raidiŋ ə hɔ:s]  
otda yurmoq



Playing table tennis  
[pleiŋ teibl 'tenis]  
stol tennisi o'ynamoq



Playing tennis  
[pleiŋ 'tenis]  
tennis o'ynamoq



Riding a bike  
['raidiŋ ə baik]  
velosiped haydamoq



Swimming  
['swimiŋ]  
suvda suzmoq



Doing karate  
['du:ɪŋ kʌrʌtə]  
karate tushmoq

Matematika amallarida tashirib qoldirilgan sonlarni yozing.

- a) 5, 15, ..., 35, 45, ...  
 b) 34, 44, 54, ..., ..., 84  
 v) 12, 22, ..., 42, 52, ..., 72  
 g) 6, 12, 18, ..., 30, 36, ...  
 d) 2, 6, 10, ..., 18, 22, ..., 30

a)  $15 + 5 \times 2 = 25$

b)  $15 + 5 \times 4 = 35$



v)  $15 + 5 \times \dots = \dots$

g)  $15 + 5 \times \dots = \dots$

d)  $15 + 5 \times \dots = \dots$



1-jadvaldagi shakllarni 30 soniya ichida eslab qoling va unga qaramasdan 45 soniyada 2-jadvalga ularni joy-joyiga chizing.




a)  $12 + 12 : 2 = 18$

b)  $12 + 12 : 3 = 16$

v)  $12 + 12 : \dots = \dots$

g)  $12 + 12 : \dots = \dots$







Ozoda CHORIYEVA,  
5-maktab o'quvchisi.  
Termiz sh.

### Bulbul

Hoy, sen gulbog'lar aro,  
Sayrab, o'ynab yurgan qush.  
Ovozingdan tanidim,  
Yurtimga kelibsan, xush!

Uch, yurtim bog'larida,  
Tinchlik deya solgin jar.  
Sendayin go'zal qushga  
Shunday vatan yarashar.

Kel, borliqni yashnatgin,  
Ovozingni yangratgin.  
Xalqimni hayratlatgin,  
O'zbekiston lol qolsin!

### SINGLIQA

Dadajonim erkatoyi,  
Oyijonim ovunchog'i,  
Jajjigina qo'g'irchog'i  
Qaqajonim Lazizaxon!

## Maqolni davom ettiring

Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar  
..... ayrilgan o'lguncha yig'lar

..... - bir yashar  
Ilmli - ming yashar

Do'sting ming bo'lsa ham - oz,  
..... bir bo'lsa ham - ko'p

..... bilan el ko'karar  
Yong'ir bilan yer ko'karar

..... yurgan tayoq yeydi

Do'st do'stni ..... sinar  
Odam odamni mehnatda sinar

Tilni bilish-....ni bilishga yo'l ochar

Bir kun tuz totgan joyingga  
..... kun salom ber

Toma-toma ko'l bo'lur  
Hech ..... cho'l bo'lur



Yelimqog'ozdan  
yuk mashinasining  
rasmini olib,  
yopishtiring va unga  
qarab rasmni bo'yang.



## Ortiqcha so'z

Quyida yo'zilgan so'zlarni diqqat bilan o'qib chiqing va ortiqcha so'zni toping. Masalan: o'g'il, ota, qiz, ona, yigit





olma, g'ildirak, tarvuz, apelsin, nok

SUT, SUV, BENZIN, CHOY, KAKAO, KOFE

ip, temir, po'lat, oltin, kumush

sigir, quyon, tovuq, pingvin, mushuk

Bo'sh qolgan har bir gulbarglar ichiga tushirib qoldirilgan unli harflarni qo'yib chiqing. Shunda siz gullarning nomini bilib olasiz.



Berilgan boshqotirmada 6 ta jonivorning tasviri yashiringan. Diqqat bilan kuzatib, ularni toping va bo'yang.





Qadri bolajonlar, masxarabozning qo'ldan tartiblangan raqamli qog'ozlari tushib ketdi. Masxaraboz va uning kuchukchasi bu jumboqni yecha olmayapti. Siz raqamlarni shunday tartibda joylashtirinki, hosil bo'lgan son 8 ga qoldiqsiz bo'linsin.


### Olmani teng taqsimlang

5 ta olmani 8 nafar bolaga bo'lib berish kerak. Qanday qilsak, olma hamma bolalarga teng taqsimlanadi?



Ko'rib turgan 3 ta kvadratingizga yana 3 dona gugurt cho'pini qo'shib 5 ta kvadrat hosil qiling.

Tipratikonni uyiga borishiga yordam bering. Uning uyiga olib boradigan yo'lda faqat ikki bo'g'inli nomga ega narsalar yotibdi.





У лошади-жеребёнок



У козы-козлёнок



У овечки-ягнёнок



У коровы-телёнок



У кота-котёнок

### Метаграммa

Наше первое слово  
Знакомо тебе:  
Есть рога у него,  
Говорит оно: «Бе-е-е!»  
Наше слово второе  
Получишь взамен,  
Если букву «Р»  
Переменишь на «Н».  
(ненад - перед)



На мне качаясь, птичка весела  
И чувствует себя прекрасно.  
Но только с «В» для птички я мила,  
А с «С» я – для нее опасна.

(ветка - сетка)



Dilsora SOBIROVA,  
1-IDUM 5-sinf o'quvchisi.  
Kogon t.



Gulixon ARSLONOVA,  
16-maktab 4-<sup>TA</sup> sinf  
o'quvchisi. Urganch sh.



Sherzod MUSADDINOV,  
17-maktab 2-sinf o'quvchisi.  
Jizzax sh.



Bahodir SOBIROV,  
2-maktab 4-sinf o'quvchisi.  
Kogon t.

## DAYOM ETTIR


Bo'sh o'tirma




Bu o'yin bolalarda so'z boyligi va aqliy qobiliyatni, asosiysi esa o'yin orqali bir-birlarini bir so'z bilan tushunib olishlariga imkon yaratadi.

Ishtirokchilar soni 10 - 14 nafargacha bo'lishi mumkin. O'yinni o'tkazish vaqti 25-30 daqiqa.

Ishtirokchilar ikki tomonga ajraladi va bir qator bo'lib turadilar. O'yinni qator oxirida turgan ishtirokchi so'z aytish bilan boshlaydi. Masalan: "mak...", "bog'..." kabi jumlasini tugallanmagan so'z aytish bilan boshlanadi. Agar uning oldida turgan sherigi jumlaning to'g'ri tugatsa, "...tab", "...bon" – unda guruh bir qadam oldinga yuradi. Bordi-yu jumlaning to'g'ri yakunlay olmasa, joyida qoladi. Keyingi guruhga navbat beriladi. Shu tariqa o'yin marra chizig'iga borguncha davom etadi.



**Ushbu rasm qaysi ertak asosida chizilgan?  
Uning rangli qismlarini yelimqog'ozdan  
kesib, o'z joyiga joylashtiring.**



**Sahifalar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining  
Yoshlar bo'limi bilan hamkorlikda tayyorlandi.**

Ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-  
badiiy nashr

Jurnal oyda bir marta chiqadi

**MUASSIS:**  
"Matbuot info  
media servis" MChJ

**Muharrir:**  
**Durdona AZIZOVA**

**Loyiha muallifi:**  
**Nodir YUSUPOV**

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Iqbol MIRZO (hay'at raisi)  
Shermat YORMATOV  
Bahodir SHAROFOV  
Vohid LUQMON  
Orif TO'XTASH  
Nodir JONUZOQ

**Mas'ul kotib:**  
**Gavhar ABDURAHMONOVA**

Jurnal 03.12.2013 y. O'zbekiston  
Matbuot va axborot agentligidan  
0832 raqamli guvohnoma olgan.

**Tahririyat manzili:**  
100011. Toshkent shahri,  
A.Navoiy ko'chasi, 16-<sup>u</sup> uy,  
415-xona. Tel: 8(595) 196-58-34;

"Sano Standart" MChJ  
bosmaxonasida chop etiladi.  
Manzil: Toshkent sh. Olmazor tumani  
Shiroq ko'chasi 100-uy.

Buyurtma raqami -  
Bichimi - 70/100 1/16  
Nusxasi - 17500

Jurnal "Erkatoy" tahririyati kompyuterlarida  
sahifalandi. Sahifalovchi:  
**Anvarjon MIRZAALIYEV**

Jurnal qahramonlari suratlaridan foydalanish  
tahririyat ruxsati bilan amalga oshirildi.

**DIQQAT, YANGI  
TANLOV!**

**ALPOMISHLAR YURTI BU DIYOR**

*Alpomishlar yurti bu diyor,  
Doston bo'lgan Rustamlari bor.  
Shu o'lkada o'ftob ayvoni,  
Shu o'lkadan boshlanar bahor.*

*Go'zal yurtning ko'rkiga chiroy,  
Uzun kokil malak Barchinoy.  
Hur qizlari ko'cha to'ldirsa,  
Go'yo yerda suzib yurar oy.*


*Men ham shu el farzandidirman,  
Ko'z qorasi, dilbandidirman.  
Erkalanib bag'rida o'sdim,  
Men ham uni jondan sevarman.*

*Alpomishlar yurti bu diyor,  
Doston bo'lgan Rustamlari bor.  
Shu o'lkada o'ftob ayvoni,  
Shu o'lkadan boshlanar bahor.*

**M. Yusuf**

**O'QITUVCHILAR UCHUN**

**“ALPOMISH  
va  
BARCHINOY”**



**Televizor**

**Sovg'alar  
sizniki**

**Uyali telefon  
apparati**

**Magnit  
kasseta**

**Tanlov sharti:** Muhtaram(a) ustozlar, siz tarbiyalagan va tarbiyalayotgan farzandlarimiz mustaqil ona yurtimizning haqiqiy yosh avlodi, bugungi kunning Alpomishlari hamda Barchinoylaridir.

O'zingiz ta'lim berayotgan o'quvchilar haqida bizga yozib yuboring. Bugungi kun bolalariga eng yaxshi ta'rif bergan ishtirokchi tanlov g'olibi hisoblanadi.

ISSN 2181-7456



Tanlov yilning janvarining 15-sonida e'lon qilinadi.